



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 18-sentabr

464-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 14-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomaga qo‘shilish to‘g‘risida” 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ-316-son qarori ijrosi haqida”gi 423-6-0-Q/24-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomaga qo‘shilish to‘g‘risida” 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ-316-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 14-sentyabrdagi 423-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro shartnomaga qo‘shilish to‘g‘risida” 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ-316-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 14-sentyabrdagi 423-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ-316-son qarori bilan:

2016-yil 19-may kuni Bangkok shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Osiyo va Tinch okeani mintaqasi bo‘yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi tomonidan qabul qilingan Osiyo va Tinch okeani mintaqasida transchegaraviy qog‘ozsiz savdo jarayonlarini soddalashtirish to‘g‘risidagi hadli bitimga qo‘shilishi;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ushbu xalqaro shartnomani amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ etib belgilanganligi;

Tashqi ishlar vazirligi O‘zbekiston Respublikasining mazkur xalqaro shartnomaga qo‘shilganligi hamda uni amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan vakolatli organ to‘g‘risida tegishli bildirishnomani depozitariyga yuborishi;

Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari ushbu xalqaro shartnoma kuchga kirgandan keyin uning qoidalari bajarilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni ta‘minlashi e‘tiborga olinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov